

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/2025.27.12.T.21.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**SHAMSIYEVA NAFISA SHAKAR QIZI**

**TUKLI SOCHIQBOP TO‘QIMALARNI ISHLAB CHIQRISH  
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki  
ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Shamsiyeva Nafisa Shakar qizi**

Tukli sochiqbor to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini  
takomillashtirish.....3

**Шамсиева Нафиса Шакар кизи**

Совершенствование технологии производства махровых полотенечных  
тканей.....21

**Shamsiyeva Nafisa Shakar qizi**

Improvement of production technology of terry toweling  
fabrics .....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....42**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**SHAMSIYEVA NAFISA SHAKAR QIZI**

**TUKLI SOCHIQBOP TO‘QIMALARNI ISHLAB CHIQRISH**  
**TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5710 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ttyasi.uz](http://www.ttyasi.uz)) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz/ru](http://www.ziyonet.uz/ru)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayev Ulugbek Tulanboyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nabiyeva Iroda Abdusamatovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Bobojanov Xusanxon Toxirovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: pochta@ttyasi.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (276-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 23-fevral kuni tarqatildi  
(2026 yil 23-fevral 276-raqamli reystr bayonnomasi).



**X.X.Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Nakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to‘qima ishlab chiqarish to‘qimachilik sanoatidagi global o‘zgarishlarga qaramasdan eksport hajmi o‘sib bormoqda. Eksportda tayyor mahsulot ulushining o‘zgarishi, texnologik ishlanmalar va ekologik toza to‘qimalarga talabning oshishi asosiy tendensiyalardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash va yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan to‘qimachilik injiniringi rivojlantirilmoqda. Qayta ishlangan tolalar, paxta va tayyor mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Uning jahon ishlab chiqarishidagi ulushi to‘qimachilik va kiyim-kechak tovarlar eksportining 3,5% ni tashkil qiladi, qo‘shilgan qiymat bo‘yicha u yalpi ichki mahsulotining atigi 2 % ini tashkil qiladi<sup>1</sup>. Dunyo miqyosida to‘qimachilik buyumlariga bo‘lgan talabdan kelib chiqqan holda samarali texnologiyalarni yaratish va takomillashtirish katta ahamiyatga egadir.

Jahon miqyosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xomashyo sarfini kamaytirish, to‘quv mahsulotlari assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va olingan natijalarni ilmiy asoslash ustida jahon miqyosida bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda, jumladan, tukli sochiqbop to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ustuvor hisoblanadi. Bu borada mahalliy paxta xomashyosidan foydalangan holda sochiqbop to‘qimalar ishlab chiqarish, iste‘mol xususiyatlari yaxshilangan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tabiiy xomashyodan tukli sochiqbop to‘qima ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun mavjud texnologiyalarni takomillashtirish zarurati mavjudligini tasdiqlaydi. Iqtisodiyotning ushbu tarmog‘ida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «... 2026-yilga qadar ip kalavani to‘liq qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarish zanjirida mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan loyihalar ro‘yhatini shakllantirish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan 2026-yilda milliy va xorijiy brenddagi tayyor mahsulot eksporti hajmini oshirish...»<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda eksport hajmini kengaytirish, keng assortimentlik imkoniyatiga ega bo‘lgan to‘qimalarni sifatini oshirish, iste‘mol xususiyatlarini yaxshilash uchun tabiiy xomashyodan foydalangan holda texnologik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston–2023” “Atrof–

<sup>1</sup> <https://fashionbuzz.media/production/tekstil-bez-granic-kak-ustroen-globalnyj-rynok>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.02.2023 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli talim yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF – 27 son Farmoni.

<sup>3</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2025 yildagi “To‘qimachilik va tikuv – trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi PF - 6 son Farmoni.

muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> Farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

### **Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.**

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II.«Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda sifatli to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va to‘quv dastgohlari texnologik imkoniyatlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu jumladan sochiqbop to‘qimalarni ishlab chiqarish, ekspluatatsion xossalarini tadqiq qilish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, tuk iplarining bog‘lanishdagi mustahkamligini oshirishga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va texnologik jarayonlarni tadqiq etish bilan Lloyd N. Ndlovu, Svitlana Arabuli, Mehmet Karahan, P. Chandrasekaran, Emma Jonsson, Mohamed Abdel Gavad, Elnashar Elsaed va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tabiiy xomashyodan ishlab chiqarilgan sochiqbop to‘qimalarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha respublikamiz olimlaridan E.Sh.Alimbaev, O.A.Axunbabaev, G‘.Valiyev, P.S.Siddiqov, D.N.Qodirova, S.A.Hamroyeva, R.K.Karimov, U.T.Abdullayev, D.G.Aliyeva, D.A.Mamadaliyevlar va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunga qadar ma’lum bo‘lgan tadqiqotlarda sochiqbop to‘qimalarning tuzilishi va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish to‘qima assortimentini kengaytirish masalalarini chuqurroq tadqiq etish zarurligi aniqlandi.

**Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqotlar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining K-6-024 “Raqobatbardosh, eksportbop ko‘p qatlamli to‘qimalar turini va ilmiy hajmdor resurstejamkor, innovatsion ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” amaliy loyihasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sochiqbop to‘qimalarda halqa tuk hosil qilish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

sochiqbop to‘qimalarning yangi turini ishlab chiqishda zamin tanda va arqoq iplarining o‘zaro ta’sirini aniqlash usulini takomillashtirish;

yetti arqoqli yangi sochiqbop to‘qima shakllanishida ishtirok etayotgan zamin tanda va arqoq iplari xomashyo sarfini o‘timlar orqali nazariy hisoblash;

sochiqbop to‘qimada mavjud o‘rilish turini o‘zgartirish hisobiga halqa tuk hosil qilish texnologiyasini takomillashtirish;

yetti arqoqli yangi sochiqbop to'qimalarning suv shimish, kapillyarlik va tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamlik xossalalariga ta'sir etuvchi texnologik ko'rsatkichlarini asoslash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida tukli sochiqbop to'qimalarni ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan mavjud texnologiyasi va to'quv dastgohlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida sochiqbop to'qimalarni ishlab chiqarishning texnologik ko'rsatkichlari, zamin tanda, tuk tanda va arqoq iplari hamda tukli sochiqbop to'qima olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda zamin tanda va arqoq iplari o'timlar sonini hisoblashning nazariy usullari, sochiqbop to'qima ishlab chiqarish texnologiyasi, to'qimachilik materialshunosligi, tahlil va sintez, to'qimalarni sinash, fizik-mexanik xossalarni aniqlash va kompyuter dasturiy ta'minotidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ishlab chiqilgan yetti arqoqli yangi sochiqbop to'qima zamin tanda va arqoq iplarining mustahkamligini aniqlash usuli iplarining qamrash burchagiga ta'sir etuvchi ishqalanish, taranglik va bosim kuchlarini tahlili asosida takomillashtirilgan;

yetti arqoqli yangi sochiqbop to'qima shakllanishida ishtirok etayotgan zamin tanda va arqoq iplarining xomashyo sarfini hisoblash ifodasi bitta rapportdagi o'timlar sonini aniqlash orqali ishlab chiqilgan;

sochiqbop to'qima tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamligini oshirishda mayda naqshli o'rilish turlarini 1/3, 2/1 tanda repsiga o'zgartirish hisobiga tuk hosil qilish texnologiyasi takomillashtirilgan;

yetti arqoqli yangi sochiqbop to'qimada suv shimish, kapillyarlik va tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamlik xossalalariga ta'sir etuvchi texnologik ko'rsatkichlarining qiymatlari halqa balandligini har xil shakllantirish hisobiga aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

to'rt arqoqli va yetti arqoqli sochiqbop to'qimalarning yangi assortimentlari yaratilgan;

ishlab chiqarishda mavjud to'quv dastgohining texnologik imkoniyatlaridan foydalagan holda sochiqbop to'qimada halqa tuklari hosil qilish texnologiyasi takomillashtirilgan;

halqa tukli sochiqbop to'qimalarni ishlab chiqarishda uch arqoqli va to'rt arqoqli halqa tuklari balandligi 3 mm va yetti arqoqli halqa tuklari 5 mm ligi hisobiga to'qima yuzasida yangi dizayn hosil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning natijalarining GOST 11027-2014 ga mosligi, approbatsiya va joriy qilinishdagi ijobiy natijalarni solishtirish, baholash, o'tkazilgan tadqiqotlarning amaliy natijalari, shuningdek, nazariy tadqiqot natijalari va yangi usul asosida oldindan aniqlangan yuza zichlik kamayishi tajriba natijalari bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati to'rt arqoqli va yetti arqoqli yangi sochiqbop to'qimalarni ishlab chiqarishda zamin o'rilishlarini o'zgartirish hisobiga zamin tanda va arqoq iplari sarfini kamayganligining nazariy aniqlanganligi, zamin iplarining xomashyo sarfini

aniqlashning nazariy ifodasi ishlab chiqilganligi va zamin tanda hamda arqoq iplarining o‘zaro ta’sirini qamrash burchagi orqali aniqlashning nazariy usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to‘rt arqoqli va yetti arqoqli yangi sochiqbop to‘qimalarni ishlab chiqarishda halqa tuk hosil qilish texnologiyasini o‘rilish turini o‘zgartirish hisobiga takomillashtirilganligi, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik ko‘rsatkichlari asoslanganligi, ishlab chiqarish samaradorligining oshganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yetti arqoqli yangi sochiqbop to‘qimada halqa tuk iplarining hosil qilish texnologiyasini takomillashtirish hisobiga olingan ilmiy natijalar asosida:

yetti arqoqli yangi sochiqbop to‘qimalarni ishlab chiqarishning takomillashtirilgan resurstejamkor texnologiyasi va ko‘rsatkichlari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tasarrufidagi Jizzax shahar “JIZZAX INDUSTRIAL TO‘QIMA” MCHJ va Toshkent shahar “SOFT TOWEL” MCHJ korxonalarida joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil 20-noyabrdagi №02/06-2729 sonli ma’lumotnomasi). Natijada halqa tuk hosil qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi asosida tuk iplarining bog‘lanishdagi mustahkamligi 7 arqoqli yangi to‘qimada 3,8 barobarga, kapillyarlik ko‘rsatkichlari 7 arqoqli to‘qimada 18 % ga, suv shimishi 16 % ga oshirilgan, yuza zichligi 19,8 % ga kamaytirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-texnik konferensiyalarda, shu jumladan, 5 ta xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ishlar chop qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 1 tasi xalqaro va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob xulosalar bilan, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurat asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob‘yekt hamda predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ilmiy tadqiqot ishi bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan I-bobida halqa tukli to‘qimalar bilan bog‘liq mavzular bo‘yicha adabiy va ilmiy manbalarni ko‘rib chiqish hamda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Mazkur o‘rganishlarni amalga oshirishda murakkab to‘qimalar tuzilishi, tarkibi, o‘ziga xos xossalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili; halqa tukli to‘qimalar

assortimenti, qo'llanilish sohalari, afzallik va kamchiliklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili; halqa tukli to'qima olishning takomillashtirilgan texnologiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar tahlili kabi vazifalar belgilab olindi.


Dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy ishlarni o'rganishda asosan tukli to'qimalarga oid adabiyotlar, ilmiy jurnallar va boshqalar ko'rib chiqildi. Bundan tashqari mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlari, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari axborot-resurs markazlarida mavjud dissertatsiyalar, dissertatsiya avtoreferatlari hamda internet ma'lumotlari tahlil etildi.

Dissertatsiyaning **“Sochiqbop to'qima mustahkamligini oldindan aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida sifatli gazlamalar ishlab chiqarishning optimal ko'rsatkichlarini aniqlanib, ular yordamida ipning to'qima tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish asosida olib borilgan hisoblash ishlari natijalari keltirilgan.


Odatda ishlab chiqarilgan to'qimalarning mustahkamligi ishlab chiqarish jarayonidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda to'qima sifat ko'rsatkichlari GOST bo'yicha berilgan texnik talablarga javob bersa ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy samaradorlikka erishiladi. Bunday holda to'qima sifat darajasini oldindan aniqlash ishlab chiqarish samaradorligini yana oshirishga imkon beradi. Shu sababli tukli sochiqbop to'qimalar mustahkamligini oldindan aniqlash masalasi ko'tarildi.

Avvalambor sochiqbop to'qimalarga qo'yilgan texnik talablar GOST 11027-2014 bo'yicha o'rganildi. Shu asosda ishlab chiqarish jarayonidagi mavjud sochiqbop to'qima namunasi o'rganilgan holda optimal texnik ko'rsatkichlar tanlab olindi. Halqa tukli sochiq to'qimalari assortimenti va ishlab chiqarish texnologiyalari tahlil qilinib, respublikamizning turli hududlarida mavjud korxonalar holati o'rganildi. Namangan viloyatida joylashgan MCHJ “EDELWEYS” korxonasida yuza zichligi  $483 \text{ g/m}^2$ , tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamligi 4.7 cN ga teng bo'lgan sochiq namunasi sinovdan o'tkazildi. Shu asosda korxonada ishlab chiqarilayotgan sochiq to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bunga ko'ra korxonada ishlab chiqarilayotgan halqa tukli sochiqlar ikkita arqoq ipi to'qimaga tashlangandan so'ng tuk tanda ipini batan mexanizmiga to'liq jipslash natijasida halqa tuk hosil qilingan. Ushbu ishlab chiqarilgan mavjud to'qimaning ikki tarafi ham arqoq bo'yicha bir xil zichlikda, bir xil tuk balandligida bo'lib, zamin tanda uchun 1/2 tanda repsi tuk tanda uchun 2/1 tanda repsidan foydalanilgan. Mavjud ishlab chiqarilayotgan to'qimaning o'rilish tasviri (1-rasm) va halqa tuk hosil bo'lishni sxematik tasviri (2-rasm) keltirilgan.

Mavjud ishlab chiqarilgan sochiqbop to'qimaning har ikkita arqoq ipi tashlangandan so'ng hosil qilingan halqa tuklari o'zaro ketma-ketlikda joylashganligi sababli to'qima yuzasida zich holatda joylashgan. Bu esa to'qimaning yuza zichligi ortishiga sabab bo'ladi. Mavjud to'qimaning halqa tuklari joylashuvini muvozanatlashtirish hisobiga yuza zichligini kamaytirish maqsad qilib olingan.




**1-rasm. Mavjud to‘qimaning o‘rilish tasviri**




**2-rasm. Mavjud to‘qimaning halqa tuk hosil bo‘lishning sxematik tasviri**

Tahlil qilingan namuna 100 % paxta ipidan olingan bo‘lsa-da, GOST 11027-2014 ga solishtirilganda tuk iplarining bog‘lanishdagi mustahkamligi 8.81 % ga kamaygan. Shu sababli ushbu namuna asos sifatida qabul qilinib, shu asosda yuza zichligi, tuk iplarining bog‘lanishdagi mustahkamligi, kapillyarlik va suv shimish xossalari bartaraf etilgan yangi sochiqbop to‘qima ishlab chiqarildi. Yangi to‘qimaga paxta ipi tanlanib, to‘qimaning asosiy fizik – mexanik xossalarini yanada orttirish maqsadida iplarning chiziqiy zichligi va buramlar soni mavjud to‘qima bilan bir xil nisbatda tanlab olindi.

Mavjud to‘qimaning texnologik ko‘rsatkichlariga asoslangan holda 4 arqoqli sochiqbop to‘qima namunasi ishlab chiqarildi. Zamin tanda uchun tanda bo‘yicha 2/2 yarim reps, tuk tanda uchun 2/1,1/2 tanda bo‘yicha yarim reps o‘rilishi tanlab olindi. 4 arqoqli to‘qimada har ikkita arqoq ipi to‘qimaga tashlangandan so‘ng tuk tanda ipi arqoq ipini ikki marta yarim aylanish orqali tuk tanda ipini to‘qima qirg‘og‘iga to‘liq jipslash natijasida to‘qimaning ikki yuzasida ham halqa tuk hosil qilingan.




3 - rasm. 4 arqoqli to‘qimaning o‘rilishi




4- rasm. Yangi to‘qimaning halqa tuk hosil bo‘lish sxematik tasviri

Bu yerda 1-2 zamin tanda iplari; I va II tuk tanda iplari.

Sochiqbop to‘qimalarning mustahkamlik koeffitsientini aniqlashning nazariy asoslari nazariy jihatdan o‘rganilgan. Ish sochiqbop to‘qimalarda zamin tanda iplarini joylashishi (5-rasm, IV holat) bo‘yicha kuchlanganlik holatini nazariy tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi zamin tanda iplari bo‘ylab qo‘yilgan tashqi cho‘zuvchi kuchning to‘qima bo‘ylab taqsimlanish qonuniyatini va to‘qima mustahkamligiga zamin iplarining arqoq iplari bilan bog‘lanishining ta‘sirini aniqlashdan iborat. Tahlil qilish uchun 6-rasmda ifodalangan hisoblash modeli qabul qilindi, bunda zamin tanda ipi galma-gal ikkita va uchta arqoq ipini yarim aylanib o‘tadi.




5-rasm. Sochiqbop to‘qimalarda zamin tanda iplarini joylashishi




**6-rasm. Zamin tanda ipi bo‘laklarining tarangliklarini algoritmlash ifodasi**


Zamin tanda ipining arqoq iplari bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish uchun to‘qima iplari bo‘yicha kuchlanish holati tahlili bajarildi. Har bir ta’sirlashish maydonida (7, 8, 9, 10-rasmlar) zamin ipi bo‘lagiga ta’sir etuvchi taranglik (T), bosim (R) va ishqalanish (F) kuchlari ko‘rib chiqilgan. Ishqalanish kuchi bilan bosim kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlik Kulon qonuni ( $F=fR$ ) asosida ifodalangan.




**7-rasm. j – arqoq ipining chap tomon yuqorigi qismidan aylanib o‘tgan zamin tanda ipining kuchlanganlik holati ifodasi**



**8-rasm. j+1 arqoq iplarining o‘ng tomon pastidan aylanib o‘tgan zamin tanda ularining kuchlanganlik holati ifodasi**



**9-rasm. J+1 arqoq iplarining chap tomoni pastidan aylanib o‘tgan zamin tanda ipini kuchlanganlik holati ifodasi**



**10-rasm. j+2 arqoq iplarining o'ng tomon yuqoridan aylanib o'tgan zamin tanda ipini kuchlanganlik holati ifodasi**

Har bir holat (2 ta arqoq ipi ostidan o'tish, 3 ta arqoq ipining o'ng va chap tomonlari) uchun statikaning muvozanat tenglamalari tuzilgan. Ushbu tenglamalar sistemasidan foydalanib, ketma-ket ip bo'laklaridagi taranglik kuchlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi analitik yechimlar olindi (1, 2, 3, 4-formulalar).

Oxirgi tenglamalardan, quyidagi yechimni topamiz:

$$T_{j2} = \frac{T_{j1}\mu_{j22}}{\mu_{j22}\cos\alpha_{j2} + \mu_{j21}\sin\alpha_{j2}}, \quad R_{j2} = \frac{T_{j2}\sin\alpha_{j2}}{\mu_{j22}} \quad (1)$$


$$T_{(j+1)1} = \frac{T_{j2}\mu_{(j+1)12}\cos\alpha_{(j+1)1} + T_{j2}\mu_{(j+1)11}\sin\alpha_{(j+1)1}}{\mu_{(j+1)12}}, \quad (2)$$

$$T_{(j+1)2} = \frac{T_{(j+1)1}\mu_{(j+1)22}}{\mu_{(j+1)22}\cos\alpha_{(j+1)2} + \mu_{(j+1)21}\sin\alpha_{(j+1)2}}, \quad R_{(j+1)2} = \frac{T_{(j+1)2}\sin\alpha_{(j+1)2}}{\mu_{(j+1)22}}, \quad (3)$$


$$T_{(j+2)1} = \frac{T_{(j+1)2}\mu_{(j+2)12}\cos\alpha_{(j+2)1} + T_{(j+1)2}\mu_{(j+2)11}\sin\alpha_{(j+2)1}}{\mu_{(j+2)11}}, \quad R_{(j+2)1} = \frac{T_{(j+1)2}\sin\alpha_{(j+2)1}}{\mu_{(j+2)12}} \quad (4)$$

Natijada, tashqi cho'zuvchi kuchning zamin tanda ipi bo'ylab anizotropik tarqalishini tavsiflovchi yopiq algoritmik model ishlab chiqilgan. Ushbu model keyingi sonli tajribalarni o'tkazish va turli sochiqbop to'qima turlarining mustahkamlik xususiyatlarini oldindan aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi turdagi sochiqbop to'qima namunasi ishlab chiqarish”** deb nomlanib, mazkur bobda sochiqbop to'qima mustahkamligini oldindan aniqlashda eng avvalo zamin tanda va arqoq iplarining joylashish tizimi, iplarining o'zaro ta'sirini o'rganish orqali to'qima mustahkamligi oldindan aniqlangan va takomillashtirilgan 7 arqoqli yangi sochiq to'qimasi loyihalangan. Bunda halqa tuk ipining zamin tanda va arqoq iplari o'rilishi orasidan o'timi to'qimaning mustahkamligini oshirishga imkon beradi. 7 arqoqli yangi to'qimada mavjudga nisbatan o'rilish turining o'zgarganligi sochiqning fizik-mexanik xossalari yaxshilanishiga olib kelganligi nazariy va analitik izlanishlar orqali asoslangan. Zamin tanda va arqoq iplarining bir marta ikkita arqoq ipini alohida-alohida aylanishi natijasida sochiqbop to'qima xossalari o'zgarishi jadval va diagrammalar orqali isbotlangan.



**11-rasm. 7 arqoqli yangi sochiqbop to‘qimaning umumiy ko‘rinishi**



**12-rasm. 7 arqoqli yangi to‘qimaning arqoq iplari bo‘ylab yo‘nalgan kesimining ko‘rinishi**



**13-rasm. 7 arqoqli yangi to‘qima tanda iplarining qirqimida iplarning joylashish tizimi**

Ishda taklif etilgan sochiqbop to‘qimaning tuzilishi va ishlab chiqarish texnologiyasini ko‘rib chiqamiz. Bunday to‘qimaning umumiy ko‘rinishi (tanda iplariga ko‘ndalang) 11-rasmda ifodalangan. Ushbu rasmlarda: 1 - arqoq ipi; 2-zamin tanda va 3-yuza va ostki tuk tanda iplari. Dastavval 7 arqoqli yangi to‘qimada zamin tanda va tuk tanda iplari sarfi an’anaviy to‘qimalarnikidan kam bo‘lishini asoslaymiz. Yangi tarkibli to‘qimadagi bitta rapportda zamin tanda iplari bir marta ikkita va yana bir marta uchta arqoq iplaridan hamda ikkita arqoq iplaridan alohida-alohida o‘tib jami to‘rtta o‘tim hosil qiladi (12 - rasm). Ya’ni ettita arqoq iplarini o‘z ichiga olgan har bir rapportda jami 4 tadan o‘timlar amalga oshiriladi. Shuning uchun yangi tarkibli to‘qimadagi zamin tanda iplarini ixtiyoriy  $k$  ta arqoq iplaridan o‘timlari soni  $\mu$  ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\mu = \frac{4}{7} k. \quad (5)$$

Shunday qilib, yangi tarkibli to‘qimada har 7 ta arqoq ipidan keyin to‘rtta o‘tim hosil bo‘ladi. Ulardan bittasi ikkita arqoq iplaridan va yana bittasi uchta arqoq iplaridan hamda ikkita arqoq iplaridan alohida-alohida o‘timlardan iborat bo‘ladi. Shu asosda iplarning bir – biri bilan ishqalanish jarayonida ta’sir etuvchi kuchlar va qiymatlar o‘zaro bog‘liq holda yuqoridagi formuladagi  $\mu$  butun qiymatlarni qabul qilishi, ya’ni namunadagi o‘timlar soni butun son bo‘lishi uchun  $k$  ga rapportdagi arqoq ipi soniga karrali qiymatlarni kiritish mumkin. Shunda, agar, namunadagi arqoq iplari  $k = 7, 14, 21, 28, \dots$  qiymatlarni qabul qilsa, o‘timlar soni mos holda  $\mu=4, 8, 12, 14$  qiymatlarni qabul qiladi.

1-jadvaldagi hisoblashlarning barchasida mavjud to‘qimada o‘timlar soni 7 arqoqli to‘qimanikidan quyidagicha farq qiladi: zamin tanda iplari har o‘n to‘rtta arqoq iplaridan keyin tanda o‘timda bunday o‘timlarning soni takomillashtirilayotgan yangi to‘qimadagi o‘timlarning umumiy sonidan 88 % ga ko‘p; ya’ni bunday o‘timlarning soni yangi tarkibli to‘qimalarda an’anaviy to‘qimaning umumiy o‘timlar sonidan 12 % ga kam bo‘ladi.

1 – jadval

**Sochiqbop to‘qimalardagi o‘timlar sonlari**


<i>Mavjud to‘qima</i>				<i>7 arqoqli yangi to‘qima</i>			
Arqoq iplari soni	Har ikkita arqoq iplaridan keyingi o‘timlar soni	Har bitta arqoq iplaridan keyingi o‘timlar soni	O‘timlarning umumiy soni	Ikkita arqoq ipidan o‘timlar soni	Uchta arqoq ipidan o‘timlar soni	Bitta arqoq ipidan o‘timlar soni	O‘timlarning umumiy soni
14	5	4	9	2	2	4	8
28	10	8	18	4	4	8	16
42	15	12	27	6	6	12	24
56	20	16	36	8	8	16	32
70	25	20	45	10	10	20	40

Tajriba-sinov ishlari uchun EDELWEYS korxonasi TL-80 to'quv dastgohi tanlab olindi. 7 arqoqli yangi to'qimani ishlab chiqarishda dastlab ikkita arqoq ipi, keyin uchta arqoq hamda oxirida yettita arqoq ipi to'qimaga tashlangandan so'ng halqa hosil qiladi. To'qimaning mavjud namunalardan farqli jihati shundaki, to'qima bir yuzasidagi halqa balandliklari har xil. To'qima yuzasida halqa hosil bo'lish jarayonida uchta arqoq iplari tashlanishni boshlaganda yettitalik jarayonning arqoq ipi xam tashlanadi. Uchta arqoq tashlab bo'lgandan so'ng to'qima chetiga uchchala arqoq ipi jipslashtirib xalqa hosil bo'ladi, lekin yettitalik arqoq iplari ochiq qoladi. Keyingi galda to'rttalik arqoq iplari tashlanishi boshlanadi va tugallanadi. Shu tugallash davrida ochiq qolgan yettitalik arqoq iplari xam tugallanib birgalikda to'qima chetiga jipslashtiriladi. Natijada uchta arqoq va to'rttalik arqoq iplari navbatma-navbat halqa tuk hosil qilganda yettitalik arqoq iplari bitta halqani hosil qiladi. Mavjud 3 arqoqli tuklarda ikkita arqoq ipidan so'ng uchinchi arqoq ipi bilan bog'lansa 4 arqoqli va yetti arqoqli tuk iplari esa zamin to'qimadagi ikkita arqoq iplari bilan o'rib, keyin tuk hosil qiladi. Bu holat to'qima sirtida tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamligini ortishiga xizmat qiladi, yangi ko'rinishni keltirib chiqaradi.


2 – jadval

**Sochiqbop to'qimalarning texnologik ko'rsatkichlari**


T/r	Namuna nomlari	Iplarning chiziqli zichligi (teks):			10 sm dagi iplar soni (ip/sm)			Iplarning buramlar soni (buram/metr):			Tuk balandligi, mm
		Tanda	Arqoq	Tuk	Tanda	Arqoq	Tuk	Tanda	Arqoq	Tuk	
1	Mavjud	29.4*2	37	25*2	11.5	17	11.5	500	500	280	4
2	4 arqoqli	29.4*2	37	25*2	11.5	17	11.5	500	500	280	4
3	7 arqoqli yangi	29.4*2	37	25*2	11.5	17	11.5	500	500	280	5



14-rasm. 7 arqoqli yangi to'qimaning o'rilish tasviri





**15-rasm. 7 arqoqli yangi to‘qimaning halqa tuk hosil bo‘lish sxematik tasviri**



**16 – rasm. Namunalarning yuza zichligi qiymatlari**

**17-rasm. Namunalarning ishqalanishga chidamliligi qiymatlari**


Tajriba namunalarning yuza zichligi (16-rasm) mavjud to‘qimaga nisbatan 4 arqoqli va 7 arqoqli yangi to‘qimada kamaygan va ishqalanishga chidamliligi (17-rasm) barcha namunalarda bir xil ko‘rsatkichni ifodalaydi.




**18 - rasm. Namunalarning uzilish kuchi (tanda va arqoq bo‘yicha) qiymatlari**

**19- rasm. Namunalarning kirishish (tanda va arqoq bo‘yicha) qiymatlari**


Namunalarning tanda va arqoq bo‘yicha uzilish kuchi (18-rasm) 7 arqoqli yangi to‘qimada oshgan. To‘qimaning kirishishi (19-rasm) 7 arqoqli yangi to‘qimada o‘rilish turiga bog‘liq holda ijobiy ko‘rsatkichni ifodalaydi.



**20-rasm. Namunalarning tukli iplarning bog‘lanishdagi mustahkamligi qiymatlari**



**21-rasm. To‘qima namunalarining kapillyarlik ko‘rsatkichlari**



**22-rasm. To‘qima namunalarining suv shimishi ko‘rsatkichlari**

To‘qimaning tuk mustahkamligi (20-rasm) mavjud to‘qimada GOST 11027-2014 talabiga javob bermaydi. Kapillyarligi (21-rasm) va suv shimishi (22-rasm) 7 arqoqli yangi to‘qimada yuqori ko‘rsatkichni ifodalagan.

**3-jadval**

**To‘qimalarning xomashyo sarfiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar**

T/r	To‘qima nomlari	Iplarning qisqarishi,%			Yuza zichligi, g/m <sup>2</sup>	10 sm <sup>2</sup> dagi tuklar soni, dona
		Zamin tanda	Arqoq	Tuk tanda		
1.	Mavjud	9.9	6.5	81.4	483	4900
2.	4 arqoqli	9.09	4.7	82.5	457.5	4356
3.	7 arqoqli yangi	17.3	9.09	76.4	375.2	3969

## Olingan namunalarning fizik-mexanik xossalari

T/r	Namunalar	Uzilish kuchi (N)		Yuvilgandan keyingi kirishishi, %		Tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamligi, kamida cN	Ishqalanishga chiqadamliligi (ayl/min)	Kapillyarlik	Suv shimishi
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq				
1	GOST 11027-2014	157	130	-13	-14	49.05	---	80	300
2	Mavjud	376.7	361	-7.5	-8.5	44.7	32 000	82	364.8
3	4 arqoqli	359	395.3	-7	-5.5	131.6	32 000	94	402.4
4	7 arqoqli yangi	436.5	541.7	-6.5	-9.5	173.8	32 000	100	431.6

Olingan ma'lumotlar hamda o'tkazilgan tajribalar asosida mavjud to'qima o'rilishi takomillashtirilgan holda iplarning chiziqli zichliklari, 10 sm<sup>2</sup> o'lchamdagi iplar soni o'zgarmagan holda talab etilgan mustahkamlikni ta'minlagan yangi to'qima namunalari olindi. Takomillashtirilgan to'qima paxta ipidan ishlab chiqarilib, to'qima mustahkamligi, suv shimishi, havo o'tkazuvchanligi, kapillyarligi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha talab etilgan miqdorga javob beradi va uni maishiy xizmatlarda ishlatish uchun tavsiya etildi. Yangi turdagi 7 arqoqli takomillashtirilgan to'qimani ishlab chiqarishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 30 ta dastgoh uchun 1 yilda 1129174 ming so'mni, 1 ta dastgoh uchun 37639 ming so'mni tashkil etadi.

## UMUMIY XULOSALAR:

1. Sochiqbop to'qima iplari qamrash burchagida taranglik, bosim kuchlari va ishqalanish koeffitsiyentini o'zaro ta'sirlarini o'rganish orqali zamin iplari mustahkamligini aniqlash usuli takomillashtirildi.

2. To'qimalarning xomashyo sarfi mavjud usulda iplarning qisqarishi va og'irligi hisobiga aniqlangan bo'lsa, ishlab chiqarilgan 7 arqoqli yangi sochiqbop to'qimada zamin tanda va arqoq iplarining o'zaro o'timlar sonini nazariy hisoblash orqali xomashyo sarfi 12 % ga kamayganligi aniqlandi.

3. Sochiqbop to'qima ishlab chiqarishda tuk hosil qilish texnologiyasini takomillashtirish orqali tuk iplarining bog'lanishdagi mustahkamligi 4 arqoqli to'qimada 2.6 barobarga, 7 arqoqli yangi to'qimada 3,6 barobarga oshirilgan assortiment turi yaratildi.

4. Tanda tukli sochiqbop to'qima iplarining texnologik ko'rsatkichlarini o'zgartirmasdan yangi o'rilish turidan foydalangan holda xomashyo sarfini mavjudga nisbatan 4 arqoqli to'qimada 11.5 % ga, 7 arqoqli yangi to'qimada 19.8 % ga kamaytirildi.

5. 4 arqoqli sochiqbop to'qimada halqa tuklarining umumiy sonini 11,1 % ga, 7 arqoqli yangi sochiqbop to'qima yuzasida esa 3 arqoqli, 4 arqoqli va 7 arqoqli halqa tuklari joylashganligi hisobiga ularning umumiy sonini 19 % ga kamaytirishga erishildi.

6. 4 arqoqli to'qimada uzilish kuchi tanda bo'yicha 17 % ga, arqoq bo'yicha 4 % ga, kapillyarlik 13 % ga, suv shimishi 10 % ga oshgan. 7 arqoqli yangi to'qimada uzilish kuchi tanda bo'yicha 4 % ga, arqoq bo'yicha 8.6 % ga, kapillyarlik 18 % ga, suv shimishi 16 % ga oshgan.

7. 7 arqoqli yangi to'qimaning fizik-mexanik xossalari GOST 11027-2014 ga muvofiq deb topildi va maishiy xizmatlarda ishlatish uchun tavsiya etildi.

8. 7 arqoqli yangi to'qima ishlab chiqarishdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlik 30 ta dastgoh uchun 1 yilda 1 129 174 ming so'mni, 1 m<sup>2</sup> to'qima uchun 11,51 ming so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.T.21.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ШАМСИЕВА НАФИСА ШАКАР КИЗИ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА МАХРОВЫХ  
ПОЛОТЕНЕЧНЫХ ТКАНЕЙ**

**05.06.02 - Технология текстильных материалов и первичная обработка  
сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2026**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.2.PhD/T5710.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности ([www.ttyesi.uz](http://www.ttyesi.uz)) и на информационно-образовательном портале "Ziynet" ([www.ziynet.uz/ru](http://www.ziynet.uz/ru)).

**Научный руководитель:**

**Абдуллаев Улугбек Туланбоевич**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Набиева Прода Абдусаматовна**  
доктор технических наук, профессор  
**Бобожанов Хусанхон Тохирович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности 10-марта 2026 года в 14<sup>00</sup> часов. (Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон, 5, Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: pochta@ttyesi.uz, Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-й этаж, комната 222).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована под номером №276). Адрес: 100100, г. Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан в 23-февраля 2026 года (реестровый протокол № 276 от 23-февраля 2026 года).



**X.X.Камилова**  
Председатель научного совета по присуждению  
ученой степени, д.т.н., профессор

**A.З.Маматов**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению  
ученой степени, д.т.н., профессор

**Ш.Ш.Хакимов**  
Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению ученой степени, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** Несмотря на глобальные изменения в текстильной промышленности, объёмы экспорта производства ткани в мире продолжают расти. Изменение доли готовой продукции в экспорте, развитие технологических разработок и рост спроса на экологичные ткани являются одними из основных тенденций. Развивается текстильный инжиниринг, направленный на модернизацию производственных технологий и освоение новых знаний. Растёт спрос на переработанные волокна, хлопок и готовую продукцию. Исходя из мирового спроса на текстильные изделия, создание и совершенствование эффективных технологий имеет большое значение. Его доля в мировом производстве составляет 3,5 % экспорта текстильных и швейных товаров, а по добавленной стоимости — лишь 2 % валового внутреннего продукта<sup>1</sup>.

В мировом масштабе проводится ряд научных исследований, направленных на снижение расхода сырья при производстве продукции, расширение ассортимента ткацких изделий, совершенствование технологий производства и научное обоснование полученных результатов. В этом направлении, в частности, приоритетное значение имеют научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование технологии производства махровых (ворсовых) полотенечных тканей. В этой области особое внимание уделяется производству полотенечных тканей с использованием местного хлопкового сырья и совершенствованию технологий производства текстильной продукции с улучшенными потребительскими свойствами.

В нашей республике это подтверждает необходимость совершенствования существующих технологий в технологических процессах производства махровых полотенечных тканей из натурального сырья для выпуска продукции, соответствующей международным стандартам. В этой отрасли экономики определены следующие приоритетные задачи. В частности, в Стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022–2026 годы обозначены важные задачи: «... к 2026 году внедрить полную переработку пряжи, сформировать перечень проектов, направленных на устранение существующих пробелов в производственной цепочке, развивать национальные бренды готовой продукции и увеличивать их экспорт, включая увеличение объёмов экспорта готовой продукции под национальными и зарубежными брендами к 2026 году...»<sup>2</sup>. При выполнении этих задач актуальными вопросами сегодня являются расширение объёмов экспорта, повышение качества тканей с широкими ассортиментными возможностями и улучшение потребительских свойств за счёт разработки технологических показателей с использованием натурального сырья.

Данное диссертационное исследование вносит вклад в реализацию задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан: № ПФ-27 от

---

<https://fashionbuzz.media/production/tekstil-bez-granic-kak-ustroen-globalnyj-rynok>

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 16.01.2025 Г. № УП-6 "О дополнительных мерах по развитию производственно-сбытовой цепочки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности"

<sup>3</sup> «Указ Президента Республики Узбекистан от 16.01.2025 Года № ПФ-6 «О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности»»

